O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro`yxatga olindi
№ 60310400 HUS1506
«12» 10 2024 y

«TASDIQLAYMAN»
SamDU rektori:
_____R.I.Xalmuradov
«___» _____2024 y

HUQUQ SOTSIOLOGIYASI FANI BO‘YICHA

FAN DASTURI

Kunduzgi bo‘lim talabalari uchun

Bilim sohasi:	300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot:
Ta’lim sohasi:	310000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar:
Ta’lim yo’nalishi:	60310400 – Sotsiologiya:`

Samarqand-2024

Fan/modul kodi HUS1506	O'quv yili 2026-2027	Semestr 5	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi tanlov	Ta'lim tili- O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4 soat

	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
1.	Huquq sotsiologiyasi	78	102	180

II Fanning maqsadi (FM)

1	**Fanni o'qitishdan maqsad** – Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarning aholi bilan ijtimoiy ish sohasida birlamchi huquqiy manbalarni o'rganishi, bo'lajak kasbiy faoliyatining o'ziga xos huquqiy boshqarilishi to'g'risida tasavvurlarini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni aholini ijtimoiy himoyalash sohasida munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish; me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish, turli huquqiy manbalar me'yorlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish; amaliy faoliyatda vazifalarni hal etishda huquqiy me'yorlardan foydalanish malakasini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan mazmuni

Fanning vazifasi -talabalarning ushbu fan bo'yicha olgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini bajarish orqali amaliyotda qo'llash bo'yicha ko'nikma hosil qilishdir.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)

M1	**Inson huquq va erkinliklari bo'yicha xalqaro aktlarning asosiy talablari** **Kirish.** Fanning maqsadi va vazifalari. Inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlik. Inson huquqlarini himoyalashning xalqaro-huquqiy mexanizmi. Qochoqlar haq-huquqlari va gumanitar yordam ko'rsatish masalalarini xalqaro-huquqiy boshqarish. Boshpana huquqi. Konsullik vakolatxonalarining chet elda o'z mamlakati huquqini himoyalashdagi roli.
M2	**O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarining Konstitusion kafolatlari** O'zbekiston Respublikasida shaxsning konstitusion maqomi. Fuqaro huquq va majburiyatlarining mutanosibligi uning huquqiy maqomi asosi sifatida. Ijtimoiy va iqtisodiy huquq va erkinliklar, ularning konstitusiyaviy boshqaruvi. Fuqarolar tomonidan o'z huquqlarini amalga oshirish chegaralari. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning konstitusion huquqlari kafolatlari.
M3	**Fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarining huquqiy muhofazasi** Fuqarolar huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish. Sud organlari tizimi. Tergov va jinoiy ishlarni sudlarda ko'rib chiqish. Aybsizlik prezumpsiyasi Voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi. Fuqarolik sudi: tushuncha va tamoyillari. Fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish. Fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqishning ma'muriy-huquqiy tartibi. Sudda fuqarolar huquqlarining buzilishi holatlari yuzasidan shikoyat qilish. 2017-2021 **yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari**vazifalari.
M4	**Mehnat huquqiy munosabatlari sohasida ijtimoiy kafolatlar** Mehnat munosabatlari. Fuqarolarning ishga joylashish huquqi. Mehnat huquqini amalga oshirish kafolatlari, bandlik markazlari organlari roli. Mehnat shartnomasi. Ishga qabul qilishda, boshqa ishga o'tishda mehnat sharoitlarini o'zgartirishda kafolatlar. Ish vaqti va dam olish vaqtini huquqiy tartibga solish. Mehnatga haq to'lashda huquqiy kafolatlar. Mehnat shartnomasini bekor qilishda kafolatlar. Ayollar, voyaga yetmaganlar va imkoniyati cheklanganlarning mehnat huquqi kafolatlari. Ijtimoiy sherikchilik.
M5	**Fuqarolarning uy-joy huquqini amalga oshirish kafolatlari** O'zbekiston Respublikasining uy-joy Kodeksi. O'zbekiston Respublikasining uy-joy fondi va uning turlari. Davlat uy-joy fondi uylarida turar-joyni ijaraga berish shartnomasi. Uy-joy maydonining ijtimoiy normasi. Vaqtincha bo'lmagan fuqarolar turar joyining saqlanishi. Maxsus uylar. Mulkchilik, egalik munosabatlarining o'zarishi. Uy-joy egasining oila a'zolari hamda ular bilan doimiy birga yashovchi fuqarolarning huquq va majburiyatlari.
M6	**Fuqarolarning pensiya ta'minoti va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy kafolatlari** Ijtimoiy ta'minot tushunchasi va tamoyillari. O'zbekiston Rspublikasida pensiya islohotlari mazmun-mohiyati. Pensiya fondi. Yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqidan foydalanadigan oila a'zolari. Oila a'zosining qaramoqda bo'lishi va mehnat qobiliyatini yo'qotganligi tushunchasi. Nafaqa.
M7	**Nogironlar va keksalarni ijtimoiy himoyalash** Nogironlar va keksalarni ijtimoiy himoyalash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasida keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash. Nogironlar va keksa fuqarolarga uyda tibbiy, sanitar-madaniy, ijtimoiy xizmat ko'rsatish. Nogironlar reabilitasiyasi. Nogironlar va keksa fuqarolarga maxsus uy-internatlarda xizmat ko'rsatish. Nogiron bolani tarbiyalayotgan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. Nogironlarni o'qitish va kasbga yo'naltirish. 2017-2021 **yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida nogironlar va keksalarni ijtimoiy himoyalash vazifalari.**

M8	**Oila bilan ijtimoiy ishning huquqiy ta'minoti. Oilada zo'ravonlikning ijtimoiy profilaktikasi** Oilaning muhim ijtimoiy institut sifatida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Nikohni rasmiylashtirish shartlari va tartibi. Nikoh munosabatlarini bekor qilish va uning huquqiy oqibatlari. Nikohni haqiqiy emas deb topish. Er-xotinlarning shaxsiy huquq va majburiyatlari. Nikoh shartnomasi. Er-xotinlarning aliment majburiyatlari. Er-xotinlarning meros huquqi. Er-xotinlar o'rtasidagi nizolarni hal etish. Oilada zo'ravonlikni oldini olish.
M9	**Ayollar va bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimining huquqiy asoslari** Ayollar huquq va erkinliklarini himoyalash bo'yicha asosiy xalqaro hujjatlar. Ayollarga nisbatan kamsitilishning barcha shakllarini yo'q qilish haqidagi Konvensiya (BMT). Ayollar bilan ijtimoiy ishning huquqiy asoslari. Bola huquqlarining asosiy kafolatlari. O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimining huquqiy asoslari. Bolalarni huquqiy himoyalash bo'yicha asosiy xalqaro hujjatlar. Bola huquqi. Bolaning oilaviy tarbiya olish huquqi. Ota-onalarning huquq va majburiyatlari. O'zbekistonda ayollar va bolalarni ijtimoiy himoyalashning davlat kafolatlari. O'zbekistonda ayollar va bolalar manfaatlarini himoyalash bo'yicha jamoat tashkilotlarining faoliyati. 2017-
M10	**Ota-ona qaramog'isiz qolgan, og'ir hayotiy vaziyatga tushgan bolalar bilan ijtimoiy ishning huquqiy asoslari** Bola huquqlari. Bolaning oilada tarbiya olish huquqi. Ota-onaning huquq va majburiyatlari. Ota-onalik huquqidan mahrum etish asoslari va tartibi. Ota-onasiz qolgan bolalarni tarbiyalash shakllari. Farzandlikka olish. Asrab olgan oila. Bolalarga vasiylik va homiylik qilish. Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar huquqlari kafolatlari. Internat muassasalari tarbiyalanuvchilari uy-joy huquqining huquqiy kafolatlari. Ta'lim olish huquqi kafolatlari.
M11	**Voyaga yetmaganlar qarovsizligi va va huquqbuzarligi ijtimoiy profilaktikasining huquqiy asoslari** Voyaga yetmaganlarning qarovsizligi va huquqbuzarligini oldini olish tizimi asoslari. Voyaga yetmaganlarning qarovsizligi va huquqbuzarligini oldini olish tizimi. Aholini ijtimoiy himoyalash organlari funksiyalari. Voyaga yetmaganlar bilan ishlash va ular huquqlarini himoyalash komissiyalari funksiyalar. Individual profilaktika ishlari olib borilayotgan voyaga yetmaganlarning huquqiy holati. Individual profilaktika ishlarini amalga oshirish asoslari.
M12	**Huquq normalari va gipoteza.**Huquqda burch va mas'uliyat tushunchasi. Huquqiy ong va madaniyatning shakllari. Dispozitsiya va huquq. Gipoteza va huquq.Huquqiy jarayonlarda gipoteza masalalarining yoritilishi. Huquqda davlat vazifalari.
M13	**Aholi bandligini ta'minlashda huquqning o'rni.** Aholini ish bilan ta'minlash haqidagi qonunning ahamiyati. Ish bilan ta'minlashda davlatning funksiyalari. Nodavlat tashkilotlarining ish bilan ta'minlashda o'rni.Ishsizlik va muammo. Inflyatsiya va ishsizlik.
M14	**Amir Temur davlatchiligida adolat masalalari.**Amir Temur buyuk davlat asoschisi. Temur tuzuklarda adolat masalasi. Adolat tamoyilarining ifodalanishi. Rosti rusti.Kuch adolatda. Xalqona va odilona siyosat.Amir Temurning jahon tarixidagi o'rni.Huquqiy masalalarning Amir Temur tuzuklarida ifodalanishi
M15	**Huquq va axloq .**Fanda huquqning ifodalanishi.Huquqiy tamoyillar. Huquqiy burch.Huquqiy ong. Huquqiy axloq.Qonunchilikda axloq maslasi.Qonunchilikda huquqning ifodalanishi.Odob axloq qoidalari.Tashkilotlarda axloq masalalari.
M16	**Buyuk allomalarning huquq va axloq to'g'risidagi qarashlari.** Forobiyning Fozil odamlar shahri asarida huquq masalasi.Nizomulmulk Siyosatnoma asarida huquq masalasi. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari.Boburnoma asarida davlat va jamiyat qurish masalasi.
M17	**Huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyat.** Huquqiy jamiyatda inson qadri.Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.Iqtisodiy savodxonlik. Huquqiy jamiyatda inson munosabatlari.Gumanizm masalasi va huquq.
M18	**Yangi O'zbekistonning Konstitutsiyasi.**Konstitutsiya bosh qomusimiz. Asosiy qonunda insoniy munosabatlarning ifodalanishi.Jamiyatda konstitutsiyaning o'rni.Shaxs va jamiyat. Davlat va jamiyat.Oila va oilaviy munosabatlar.
M19	**Korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqning o'rni.** Korrupsiya jamiyatning kushandasi.Korrupsiyaga qarshi kurash davr talabi. Singapur korrupsiyasiz jamiyat. O'zbekiston qonunchilkigida korrupsiyaga qarshi kurashsish masalasi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S)

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

S1	Ijtimoiy-huquqiy faoliyatni xalqaro-huquqiy boshqarish
S2	Ijtimoiy ishning konstitusiyaviy asoslari
S3	Fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarining huquqiy muhofazasi
S4	Mehnat huquqiy munosabatlari sohasida ijtimoiy kafolatlar. Ijtimoiy sherikchilik
S5	Fuqarolarning uy-joy huquqini amalga oshirish kafolatlari
S6	Fuqarolarning pensiya ta'minoti va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy kafolatlari
S7	Nogironlar va keksalarni ijtimoiy himoyalash
S8	Oila bilan ijtimoiy ishning huquqiy ta'minoti. Oilada zo'ravonlikning ijtimoiy profilaktikasi
S9	Ayollar va bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimining huquqiy asoslari
S10	Ota-ona qaramog'isiz qolgan, og'ir hayotiy vaziyatga tushgan bolalar bilan ijtimoiy ishning huquqiy asoslari
S11	Voyaga yetmaganlar qarovsizligi va va huquqbuzarligi ijtimoiy profilaktikasining huquqiy asoslari
S12	Huquq normalari va gipoteza.
S13	Aholi bandligini ta'minlashda huquqning o'rni
S14	Amir Temur davlatchiligida adolat masalasi
S15	Huquq va axloq

S16	Buyuk allomalarning huquq va axloq to'g'risidagi qarashlari
S17	Huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyat
S18	Yangi O'zbekistonning Konstitutsiyasi
S19	Korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqning o'rni
S20	Korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqning o'rni

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Huquq sotsiologiyasi" fani bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

	1-Mustaqil ta'lim topshiriqlari
1	Inson huquqlarini himoya qilishniung mexanizmlari.
2	BMTning inson huquqlari bo'yicha dasturi.
3	**Huquqning rivojlanish bosqichlari**
4	Voyaga yetmaganlarning huquqlari
5	Sud jarayonida adliya idoralarining faoliyati
6	Voyaga yetmaganlarning mehnatini boshqarish
7	Mehnat intizomi va unga rioya qilish
8	Aybsizlik prezumpsiyasi
9	Ma'muriy huquqbuzarlik uchun jazo turlari
10	Muomala layoqati va unung qonunchilikda ifodalanishi
11	Ijtimoiy kafolatlar strukturasi
12	Shaxsning konstitutsion huquq va burchlari
13	Xalqaro qonunchilikda inson huquqlarining ifodalanishi
14	Milliy qonunchilikda inson huquqlarining ifodalanishi
15	Xalqaro huquqiy normalar.
16	Mehnat huquqiy munosabatlar sohasida ijtimoiy kafolatlar
17	Nogironlarni himoya qilish
18	Keksalarni himoya qilish
19	Oilalar bilan ishlashning huquqiy asoslari
20	Oilada zo'ravonlikning oldini olish profilaktikasi
21	Konstitutsiya va huquq
22	Aholi bandligini ta'minlashda huquqning o'rni
23	Amir Temur davlatida adolat tamoyili
24	Huquq va axloq
25	Huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyat
26	Yangi O'zbekistonning Konstitutsiyasi mazmun va mohiyati
27	Korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqning o'rni
28	Korrupsiya jamiyatning zavoli
29	Fuqarolarning pensiya ta'minoti
30	Fuqarolarning uy joy huquqini amalga oshirish kafolatlari

Huquq sotsiologiyasi fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Talabalarni jahon huquqshunoslari va ularning huquqiy ta'limotlari bilan tanishtirish, insonning huquqiy madaniyati va huquqiy ong va uning shakllari haqida ma'lumot berish;.

Talabalar huquqiy ong taraqqiyoti jarayonini yaxlit tarzda tasavvur qila olishi, ayni paytda, turli xil huquqiy oqimlar, yo'nalishlar, ta'limotlarning mohiyatini tushunib yetishi, ularning ilmiy qadr- qimmati va bugungi kun uchun ahamiyatini to'g'ri baholay olishi zarur. bilishi va ulardan keng foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

. Huquq sotsiologiyasi bo'yicha talabalar .mustaqil ishni yozish jarayonida huquqiy bilim va malaka,huquqiy ong shakllari va madaniyat, iste'molchi huquqlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar

	Asosiy adabiyotlar
1.	Mirziyoyev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2017.
2.	Mirziyoyev Sh.M.Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2017.
3.	Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2017.
4.	Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2017.
5.	Normurodov B.N., Normurodova G.B. Sotsiologiya tarixi. – Toshkent: Fan, 2008.
6.	Abdurahmonov K.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish: Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 656.
	Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar
1.	Кравченко А.И. Трудовые организации: структура, функции. Поведение М., 1990
2.	Кравченко А.И. Социология менежмента М., 1999.
3.	Зайсев А.К. Социолог нав предприятие пособие практику. Калуга 1993.
4.	O'zbekiston ayollar nodavlat notijorat tashkilotlari // Jenskie negosudarstvennye nekommercheskie organizatsii Uzbekistana / Spravochnik: ma'lumotnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 202 b.
5.	O'zbekiston ayollari va erkaklari. 2000-2005 Statistik to'plam: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2007. – B. 45

	6.	Abulqosimov H, Xolmuratova G., Jumaniyozova M. O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash masalalari. – Toshkent, 2004.
	7.	Ayollar va erkaklar. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2016. – 198 b.
	Axborot manbaalari	
	1.	www.lex.uz
	2.	library.samdu.uz
	3.	www.ziyonet.uz
	4.	www.gov.uz
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universitet iO’quv uslubiy Kengashining 2024 yil “24” 08 dagi 1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.	
8.	**Fan/modul uchun mas’ul:** Yusupov R.K. – SamDU, “Sotsiologiya va ijtimoiy ish” kafedrasi dotsenti	
9.	**Taqrizchilar:** I.Negmatov – SamDU, “Sotsiologiya va ijtimoiy ish” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dotsent O.G’aybullayev.- Samarqand Davlat Chet tillar instituti. F.f.d.prof	

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida

Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedra mudiri **dots. I.Negmatov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani **prof. A.Q. Aymatov**

SamDU o‘quv ishlari bo’yicha birinchi prorektor **prof. A.Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida o’tiladigan “Huquq sotsiologiyasi” fanidan tuzilgan fan dasturiga TAQRIZ.

Ushbu fan dasturi oliy ta’lim tizimida bakalavr bosqichi talabalari uchun o’tiladigan „Huquq sotsiologiyasi’’ fanining mazmuni va o’tish tartibini,talabalar tomonidan o’zlashtirilishi lozim bo’lgan bilim hamda ko’nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy hujjat bo’lib hisoblanadi. O’quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta’lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.Fan bo’yicha tuzilgan o’quv dasturi fanning maqsadi,vazifalari, o’quv fan mazmunining qisqa bayoni , talabalarning bilimi va ko’nikmalariga qo’yiladigan talablar singari bir qator qismlardan iborat. Xususan, o’quv fanining maqsad va vazifasini belgilab berish o’quv dasturining muhim belgisidir. Chunki, aynan shu narsa yaratiladigan o’quv darsligi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o’qituvchiga esa muayyan mo’jalni to’g’ri belgilash imkonini beradi. Ta’lim amaliyotida o’quv dasturi yaratishning markazlashgan va tizimli usullari bor. Markazlashgan yo’l bilan tuzilgan o’quv dasturlari ta;limning mazmuni yoki o’quv materiallari o’qitishning keng bosqichida yuksakroq takrorlash darajasi ko’zda tutiladi. Tizimli usuldagi o’quv dasturlarida o’quv materiallari fan mantig’iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta’limning o’quv dasturi tomonidan belgilangan mazmunini darslik, o’quv qo’llanma, ko’rgazmali qurollar, metodik tavsiyalar to’ldiradi.

Dasturda „Huquq sotsiologiyasi’’ fani yo’nalishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ma’ruza, seminar mashg’ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur bo’lgan ko’rsatma va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, mustaqil ta’lim shakli va mavzulari, fanni o’qirish natijasi, ta’lim texnologiyalari hamda metodlari va asosiy, qo’shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko’nikma va malakalariga qo’yilgan talablar bo’lajak mutaxassislarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o’z ichiga olgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ushbu o’quv dasturi mazmunli va tuzilishi jihatidan bunday o’quv dasturlariga qo’yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tegishli ta’lim yo’nalishlari talabalari uchun ta’lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomifdagi Samarqand
Davlat Universiteti Psixologiya va
Ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi mudiri dot.I.Negmatov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy- siyosiy fanlar fakulteti Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida o'tiladigan „Huquq sotsiologiyasi'' fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

Jamiyatimizda huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik rivojlanib borar ekan huquq sotsiologiyasi fanini o'qitishga, o'rganishga bo'lgan talab ham oshib bormoqda.Zamonaviy jamiyatda insonlarning jamiyatdagi o'rni va rolini belgilashda, o'zaro sotsial aloqalar va munosabatlarni tartibga solishda huquq fanining o'rni katta. Iste'molchi sifatida inson o'z huquqlari bilan birgalikda burchlarini ham unutmasligi kerak. Bir kishining huquqlari ikkinchi kishining huquqlarini poymol etmasligi kerak. Shu o'rinda ushbu dasturda bu kabi masalalar batafsil bayon etib o'tilgan.

Ta'lim amaliyotida o'quv dasturi yaratishning konsentrik hamda tizimli usullari mavjud bo'lib hisoblanadi. Konsentrik usul bilan tuzilgan o'quv dasturida ta'limning mazmuni va o'quv materiallari yuksakroq darajada takrorlanishini ko'zda tutadi. Tizimli usuldagi o'quv dasturlarida o'quv materiallari fan mantig'iga asoslangan holda soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmunini darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmalar va metodik tafsiyalarlar yanada to'ldiradi.

Ushbu fan dasturida ma'ruza, seminar mash'g'ulotlari aynan huquq sotsiologiyasi fanini o'rganish uchun berilgan tafsiyalar bilan yoritib berilgan.Shuningdek mustaqil ta'lim topshiriqlari ularning yozilish va bajarish yo'llari bo'yicha tafsiyalar berib o'tilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak mutaxassislarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga olgan.

Ushbu fan dasturi yuqoridagi barcha talablarni mazmun jihatidan ham, tuzilishi jihatidan ham o'z ichiga qamrab olgan deb hisoblayman va talabalar uchu ta'lim jarayonida foydalanishga tafsiya etaman

Samarqand Davlat Chet tillar instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
professori **O.G'aybullayev**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM, FAN VA TA'LIM VAZIRLIGI • SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI • TADQIQOTLAR INNOVATSIYALAR VA ILMIY PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH BO'LIMI